

SAYYID SHARIF JURJONIYING «TA'RIFOT» ASARINING TOSHBOSMA NUSXALARI

Davronbek Dilmurod o'g'li Abdullayev

Oriental universiteti, Filologiya va tillarni o'qitish fakulteti stajyor o'qituvchisi

Annotatsiya: Sayyid Sharif Jurjoniy ko'plab fanlarga oid asarlarga yozgan olim bo'lib, uning asarlari ichida "Ta'rifot" asari alohida ilmiy qiymatga ega. Ushbu maqolada mazkur asarning toshbosma nusxalariga oid ma'lumotlar o'rinni olgan.

Kalit so'zlar: Toshbosma, qo'lyozma, invertar raqami.

Jurjoniying eng mashhur kitoblaridan biri "Ta'rifot" asaridir. "Ta'rifot" arab tilida "ta'riflar" degan ma'noni anglatadi. Asarda muallif hadis, fiqh, tasavvuf, falsafa, mantiq, lug'at, nahv, sarf, aruz va balog'at kabi ilmlarga oid ta'rif va istilohlar, ya'ni terminlarni jamlagani uchun ham asarga shunday nom bergan.

Asar "Ogoh bo'lingkim, Illohning oyat-belgilaridan o'zga oyat-belgilar yo'qdir" degan jumla bilan, ayrim nusxalarda esa Hadisi sharifdan iqtibos bilan boshlanadi. So'ng hamd va na't keltirilib, asarni yozishdan maqsad bayon qilinadi:

"Allohga o'z haqqida loyiq hamd bo'lsin. Uning yaratiqlarining eng yaxshisi Muhammadga va uning oliga salot-u salomlar bo'lsin. So'ngra, (aytamankim):

"Ushbular olimlar kitobidan men yig'gan ta'riflar, olgan istilohlarimdir, ularni "alif" va "bo"dan "yo" gacha alifbo harflari bo'yicha tartibladim. Toki toliblar uni olishi oson, istovchilar uni egallashi yengil bo'lsin. Alloh hidoyatchidir, avval-u oxirimda e'timodim ungadir."

So'ng, "ibrido" so'zi bilan ta'riflar boshlanadi. Ibtidoga quyidagicha ta'rif beriladi:

"Ibtido ikkinchi misraning avvalgi qismidir. Nahvchilar nazdida esa u ismning isnod (predikativlik) uchun lafziy (shakliy) omillar (grammatik ta'sir etuvchi faktorlar)dan xoli bo'lishidir. Masalan: Zayd ketuvchidir. Ushbu ma'no bu ikki so'zga (ta'sir etuvchi) omildir. (Ikki so'zdan) birinchisi mutbado (boshlanish), musnad ilayhi (unga suyantirilgan) va muhaddasun anhu (u haqida so'zlangan) deb nomlansa, ikkinchi so'z xabar, hadis (so'z) va musnad (suyantirilgan) deb nomlanadi¹.

Shundan so'ng "yo" harfiga qadar ta'riflar keltiriladi. Ta'riflar "Yunusiyha" (aqidaviy oqim nomi) so'ziga ta'rif berish bilan tugaydi².

Kitob alifbo tartibidagi bir taqsimlashga (Ibrohim Abyoriy) ko'ra 1647, yana bir taqsimlashga (Muhammad Minshaviy) ko'ra esa 2026 istilohni o'z ichiga olgan. Taqsimlashdagi farqning sababi – ikkinchi muhaqqiq Muhammad Minshaviyning bir istilohning tarkibiy qismlarini alohida bir nechta istilohlarga ajratgani bilan bog'liq³.

"Ta'rifot" asari ko'p tarqalgan hamda bizning diyorda ijod etgan olimning qalamiga mansub bo'lishiga qaramay, bizga noma'lum sabablarga ko'ra bizdagi qo'lyozma fondlarida, shu qatorda, O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi qoshidagi Abu Rayhon Beruniy Sharqshunoslik institutida ham qo'lyozma nusxalari mavjud emas. Shu boisdan uning Sharqshunoslik institutidagi mavjud toshbosma nusxalarini o'rganib chiqamiz.

¹علي بن محمد الجرجاني. التعريفات. القاهرة: دار الفضيلة. 2004. ص 9

²علي بن محمد الجرجاني. التعريفات. القاهرة: دار الفضيلة. 2004. ص.9،218. علي بن محمد الجرجاني. التعريفات. دار الريان. 1983. ص.19،333.

³علي بن محمد الجرجاني. التعريفات. القاهرة: دار الفضيلة. 2004. علي بن محمد الجرجاني. التعريفات. دار الريان. 1983

1. Ta’rifot. Invertar raqami 6878.
Misrda chop etilgan. Noshiri Sayyid Muhammad Abdulvohid At-tubiy va Sayyid Umar Husayn Al-xashshob. 1889-yili nashr qilingan. Kitob o’lchami 24.5 x 15 sm. 120 sahifadan iborat. Arab tilida ko’chirilgan.
2. Ta’rifoti Sayyid. Invertar raqami 12315.
Istanbulda chop etilgan. Noshiri Orif Afandi. 1900-yili nashr qilingan. Kitob o’lchami 23.5 x 15.5 sm. 215 sahifadan iborat. Arab tilida ko’chirilgan.
3. Ta’rifoti Sayyid. Invertar raqami 12025; 12590.
Istanbulda chop etilgan. Noshiri Matba’ai Husayn. 1889-yili nashr qilingan. Kitob o’lchami 22.5 x 15 sm. 188 sahifadan iborat. Arab tilida ko’chirilgan.
4. Ta’rifoti Sayyid. Invertar raqami 6843.
Istanbulda chop etilgan. Noshiri noma’lum. 1900-yili nashr qilingan. Kitob o’lchami 26 x 15 sm. 215 sahifadan iborat. Arab tilida ko’chirilgan.
5. Ta’rifoti Sayyidiy. Invertar raqami 6463.
Istanbulda chop etilgan. Noshiri Shirkati sihofiyya. Nashr yili noma’lum. Kitob o’lchami 24 x 15 sm. 125 sahifadan iborat. Arab tilida ko’chirilgan.
6. Ta’rifoti Sayyid Sharif. Invertar raqami 8433; 15510; 17243.
Istanbulda chop etilgan. Noshiri Shirkati eroniyya. 1889-yili nashr qilingan. Kitob o’lchami 23 x 16 sm. 128 sahifadan iborat. Arab tilida ko’chirilgan.
7. Ta’rifoti Sayyid Sharif. Invertar raqami 8488; 8613; 8614; 8580; 15655.
Istanbulda chop etilgan. Noshiri noma’lum. 1900-yili nashr qilingan. Kitob o’lchami 24 x 16 sm. 177 sahifadan iborat. Arab tilida ko’chirilgan.
Kitob hoshiyasida “Mutammamoti Ta’rifot” kitobi mavjud.
8. Ta’rifoti Sayyid Sharif. Invertar raqami 6984.
Istanbulda chop etilgan. Noshiri Orif Afandi. 1900-yili nashr qilingan. Kitob o’lchami 15 x 23 sm. 175 sahifadan iborat. Arab tilida ko’chirilgan.
9. Ta’rifoti Mir Sayyid Sharif. Invertar raqami 10248. 17088
Peterburgda chop etilgan. Noshiri Muhammad Alim ibn Muhammad Rahim. 1897-yili nashr qilingan. Kitob o’lchami 15 x 22 sm. 144 sahifadan iborat. Arab tilida ko’chirilgan.
Bu kitobda yana “Istilohoti sufiiyya” kitobi mavjud.
10. Ta’rifoti Sayyidiy ma’ a istilohoti-s-sufiyya. Invertar raqami 6450.
Istanbulda chop etilgan. Noshiri Shirkati sihofiyya. 1866-yili nashr qilingan. Kitob o’lchami 26 x 16 sm. 175+12 sahifadan iborat. Arab tilida ko’chirilgan.
11. Ta’rifoti Sayyidiy. Invertar raqami 8448. 15871
Istanbulda chop etilgan. Noshiri Ahmad Xalusiy. 1890-yili nashr qilingan. Kitob o’lchami 15 x 23 sm. 175 sahifadan iborat. Arab tilida ko’chirilgan.
Shuningdek, biz O’zRAFA Sharqshunoslik institutidagi Hamid Sulaymonov fondidan ham “Ta’rifot” asarining qo’lyozma nuxxalarini topa olmadik. Shunga qaramay, ushbu fondda asarning bir qancha toshbosma nuxxalariga duch keldik. Ularni quyida keltirib o’tamiz:
 1. Ta’rifoti Sayyid Sharif. Invertar raqami 1794.
Istanbulda chop etilgan. Noshiri noma’lum. 1318-hijriy yili nashr qilingan. Kitob o’lchami 25.5 x 23.5 sm. 37+177 sahifadan iborat. Arab tilida ko’chirilgan.
 2. Ta’rifoti Sayyid Sharif. Invertar raqami 1851.
Istanbulda chop etilgan. Noshiri noma’lum. 1318-hijriy yili nashr qilingan. Kitob o’lchami 14 x 23.5 sm. 40+175 sahifadan iborat. Arab tilida ko’chirilgan.
 3. Ta’rifoti Sayyid Sharif. Invertar raqami 4767.
Chop etilgan joyi noma’lum. Noshiri Dori saodat. 1318-hijriy yili nashr qilingan. Kitob o’lchami 15 x 23 sm. 176 sahifadan iborat. Arab tilida ko’chirilgan.
 4. Ta’rifoti Sayyid Sharif. Invertar raqami 4872.

Istanbulda chop etilgan. Noshiri noma'lum. 1327-hijriy yili nashr qilingan. Kitob o'lchamini
16.5 x 21.5 sm. 187 sahifadan iborat. Arab tilida ko'chirilgan.

5. Ta'rifoti Sayyid Sharif. Invertar raqami 5066.

Istanbulda chop etilgan. Noshiri noma'lum. 1318-hijriy yili nashr qilingan. Kitob o'lchami 15.5 x 23.5 sm. 177 sahifadan iborat. Arab tilida ko'chirilgan.

6. Ta’rifot va yaliyhi Istilohoti sufivya. Invertar raqami 3122.

Peterburgda chop etilgan. Noshiri Matba'ai Barogoskiy, 18

Yugoridagilardan ko'rshimiz mumkinki, aksar bizda mayjud toshbosmalar. Istanbulda o'lchami 13 x 22.5 sm. 144 sahifadan iborat. Arab tilida ko'chirilgan.

Faqirdaglardan ke tishimiz mukimkini, aksar uzedda illajud toshbosmalar Istanbulda chop etilgan. Usmoniyalar o'sha davrda Islom olami markazi bo'lgani bois, musulmon olimlari kitoblari, asosan, shu yerda chop etilgan. Shuningdek, Misr arab olamida ilk bora bosmoxonalar tashkil etgani bois ayrim ilk toshbosma nusxalar u yerda chop etilgani ajablanarli emas. Peterburgdagi nashrlar esa tatar olimlari tomonidan amalga oshirilganini noshir ismi tasdiqlab turibdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- علي بن محمد الجرجاني. التعريفات. القاهرة: دار الفضيلة. 2004.
 - علي بن محمد الجرجاني. التعريفات. القاهرة: دار الفضيلة. 2004. ص.3-4. علي بن محمد الجرجاني. التعريفات. دار الريان.
 - منصور علي عبد العزيز. الجهود الاصطلاحية المعجمية في كتاب التعريفات للجرجاني. لـ_____. جامعة طرابلس. كلية اللغات الدراسات العليا. قسم اللغة العربية. 2015.